# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

7
2023

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

7491
ISSN: 2992-8982

1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Resp. Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan ....................6
**Raekwon Chung**, Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari....................8
**Nodira Shotursunova,** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari....................12
**Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,** t.f.n., dotsent

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari....................16
**Egamov Zoxid Baxtiyarovich,** bosh mutaxassisi

Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development....................26
**Muratova Muzayana,** Teacher

Анализ состояния применения механизма инновационного управления
инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли....................34
**Кучаров Аброр Сабиржанович,** профессор; **Динара Нурмамад кизи Ишманова,** доцент; **Тю Константин Геннадьевич,** соискатель

Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills

of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy ....................39
**Nargiza Samandarova Muxammadovna,** Teacher

The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy....................47
**Ikromov Sayidolim,** Teacher

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari....................54
**Rasulova Nigora Yusupovna,** kafedra assistenti

Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati ....................58
**Jontemirova Iroda Ikrom qizi,** talaba

Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni....................61
**Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna,** talaba

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati....................64
**Raxmanov M. A.,** tayanch doktorant

Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education....................68
**Tukhtaeva Shakhnoza,** Teacher

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xusushiyatlari....................75
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** kafedra dotsenti; **Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli,** tayanch doktoranti

Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash....................79
**Berkinov Bozorboy,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor; **Qulmatova Sayyora Safarovna,** PhD; **Ruxsatova Rushana O'ktamovna**, erkin tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari ....................86
**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari....................97
**G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich,** i. f. d., professor; **Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich,** i. f. f. d. (PhD)

Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....................102
**Raxmanov Mexridin Sindarovich,** kafedra dotsent v. b.

Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi....................106
**Ortiqov Uyg'un Davlatovich,** kafedra dotsenti, i.f.n.

Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания ....................115
**Марданова Барно Асатуллоевна,** докторант

Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan....................119
**Aziz Zikriyoev,** PhD

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya
va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi....................129
**Kambarova Sh. M.** i.f.b.f.d. PhD

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Xalqaro dividend siyosati tajribalarida “S&P 500 dividend aristocrats” amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo‘llash imkoniyatlari ....134
**Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna,** dotsent

Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo‘llari ....139
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; **Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna,** talaba

Byudjyetdan tashqari mablag‘lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli ....147
**Norov Akbar Ruzimamatovich**

O‘zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili ....151
**Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich,** i.f.f.d.(PhD)

Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli ....158
**Xudayarova Maftuna Shavkatovna,** tayanch doktorant

Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi ....164
**Karimova Shirin Zoxid qizi,** tayanch doktorant

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta’minlash ....168
**Shakirova Nigora Axralovna,** kafedra dotsenti v.b.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida ....172
**Raximbayev Akmal Azatboyevich,** mustaqil tadqiqotchi

Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management....177
**Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna,** PhD

Obligatsiyalar bozorining paydo bo‘lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati ....182
**Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li,** tayanch doktorant

Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati....186
**Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich,** mustaqil izlanuvchi

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari....195
**Tojiyev Sardor Dilmurod o‘g‘li**

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida sug‘urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi....199
**Abduturapova Dildora Farxodjon qizi,** tayanch doktorant

Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili ....205
**Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich,** 3 st year doctoral student

Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma’muriyatchiligi faoliyati tahlili....210
**Tashmuxamedova Yayra,** tadqiqotchi

Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance....213
**Rakhimova Gulnoza,** Teacher

Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия)....218
**Искендир Аккуралай Абдиуалиевна,** докторант

Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri ....222
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna,** kafedra dotsenti; **Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi**

Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ....228
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант

Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги ....233
**Рашидов Рахимжон Искандарович,** в.и.о доцента; **Якубова Шамшинур Шухратовна,** к.э.н., доцент, докторант (DSc)

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta’minlashda sug‘urtaning o‘rni ....240
**Nomozova Qumri Isoyevna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari....248
**Nazarov Qilich Xolmuradovich,** kafedra assistenti

Bank moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda huquqiy mexanizmlarning o‘rni....255
**Akbarov Behzodhon Ulug‘bek o‘g‘li,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari....262
**Do‘sanov Doniyor,** magistr

Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar ....269
**N. N. Ro'ziyev**

Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan ....277
**Sattorova Nasiba G'anijon qizi,** Teacher

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati ....284
**Murodova Dilnoza Choriyevna,** PhD

Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish ....288
**Gadoyev So'hrob Jumakulovich,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari ....295
**M. A. Saparova,** talaba

Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров ....299
**Очилова Хилола Фармоновна,** к.э.н., доцент

Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development ....304
**Vafoyeva Dilafruz,** Teacher

O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari ....311
**Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li,** katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili ....316
**Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna,** tayanch doktorant

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari ....323
**Xalilova Nafisa Komilovna,** magistrant

Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba ....327
**Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li,** tayanch doktarant

Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров ....334
**Джурабаев Отабек Джурабаевич,** доцент кафедры

Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана ....341
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri ....349
**Jumabayeve Akmole Sheraliyevich,** magistrant

Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег ....354
**Бахромов Мирзаахмад Рустам угли,** студент; **Абдикаримова Динара Рустамхановна,** научный руководитель, д. э. н. (DSc)

Systematic mapping study of higher education in green development context ....361
**Asqarova Feruza Abdullaevna,** Senior Teacher

O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ....368
**Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li,** kafedra o'qituvchisi; **Shaymanova Nigora Yusupovna,** tayanch doktoranti

Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации ....373
**Д. К. Исмагилов,** кандидат педагогических наук, доцент

Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development ....377
**Shodmonkulova Shahlo,** PhD student

Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi ....384
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi

Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari ....390
**Voxidov Oybek Rozikovich,** mustaqil tadqiqotchisi

Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy ....398
**Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli,** Teacher

Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari ....406
**Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna**, mustaqil izlanuvchi (PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# O‘ZBEKISTONDA REKREATSIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Vayskulov Ramazon Alisher o‘g‘li**
Qarshi DU “Turizm va marketing” kafedrasi o‘qituvchisi



**Shaymanova Nigora Yusupovna**
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun rekreatsion turizmning muhimligi hamda uning Pandemiyadan keyingi holati tahlil qilingan. Soha mutaxassislarining rekreatsiya tushunchasiga bergan ta’riflari yoritilgan. Mamlakatda mavjud rekreatsiya resurslari va ularning imkoniyatlari o‘rganilgan. O‘zbekiston bo‘yicha rekreatsiya turizmini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Rekreatsiya, rekreatsion turizm, rekreatsiya resurslari, dam olish, sog‘lomlashtirish, davolanish, sanatoriya-kurort muassasasi

Аннотация: В статье анализируется значение рекреационного туризма для экономики Узбекистана и его положение после пандемии. Выделены определения, которые дают специалисты понятию рекреации. Изучены имеющиеся в стране рекреационные ресурсы и их возможности. Разработаны предложения и рекомендации по развитию рекреационного туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: Рекреация, рекреационный туризм, рекреационные ресурсы, отдых, выздоровление, лечение, санаторно-курортное учреждение.

Abstract: The article analyzes the importance of recreational tourism for the economy of Uzbekistan and its position after the pandemic. The definitions given by specialists to the concept of recreation are highlighted. The country's available recreational resources and their possibilities are studied. Proposals and recommendations for the development of recreational tourism in Uzbekistan have been developed.

Key words:Recreation, recreational tourism, recreational resources, relaxation, recovery, treatment, sanatorium and resort institution

## KIRISH

Bugungi kunda turizm O‘zbekiston iqtisodiyotida eng yosh sohalardan biri bo‘lishiga qaramasdan, boshqa ayrim sohalarga nisbatan jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur sohani rivojlanishida eng avvalo mamlakatda mavjud turistik resurslar hamda ularning salohiyatidan samarali foydalanish talab etiladi. O‘zbekiston sharoitida

bunday resurslar toifasiga asosan tarixiy-madaniy va arxeologik yodgorliklarni kiritish mumkin. Biroq, mamlakatimiz nafaqat ushbu yo‘nalishdagi turistik resurslari bilan balki, dam olish, sog‘liqni tiklash hamda rekreatsiya resurslariga boy ekanligi bilan ham ko‘plab turistlarni o‘ziga jalb eta oladi.

Dunyo amaliyotida sayyohlar soni Koronavirus (COVID-19) pandemiyasi ta’siri tufayli 2020-yilda keskin pasayib ketganidan so‘ng, 2021-yilda dam olish maqsadidagi jahon turizmi xarajatlari o‘tgan yilga nisbatan qariyb 25 foizga oshdi. Yillik o'sishiga qaramay, butun dunyo bo'ylab sayohatchilarning umumiy xarajatlari pandemiyagacha bo'lgan darajadan ancha past bo'lib, 2021 yilda taxminan 2,9 trillion AQSh dollarini tashkil etdi [11].

Demak, turizmning ushbu yo‘nalishi rekreatsiya resurslari mavjud bo‘lgan O‘zbekiston hududi uchun ham potensial turizm yo‘nalishi sifatida shakllantirish va uni xalqaro turizm bozorda mavqeini mustahkamlash davrning muhim masalalaridan biri sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan ham O‘zbekistonda mazkur turizm yo‘nalishini tartibga solish va takomillashtirish maqsadida bir nechta normativ huquqiy asoslar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi ““Chorvoq” turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish to‘g‘risida” PF-5273 sonli Farmoni [1] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining ““Zomin” turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 254-son qarorlarini [2] keltirish mumkin. Ushbu normativ asoslarda tog‘li hududlarning turizm salohiyatidan samarali foydalanish, xalqaro umummavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash kabi vazifalar belgilangan.

Bu kabi vazifalar mazkur sohani rivojlantirish hamda ularning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib boorish mavzuning dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Rekreatsion turizmning mazmunini ochib berishda eng avvalo rekreatsiya atamasining mazmunini o‘rganish talab etiladi. Rekreatsiya atamasi ingliz tilida birinchi marta XIV asr oxirida, birinchi bo‘lib “bemor odamni tetiklash yoki davolash” ma’nosida qo‘llanilgan va asl kelib chiqishi lotin tilidan (re: “yana”, creare: " yaratmoq, tug'dirmoq, tug'dirmoq") olingan [12].

Keyinchalik, rekreatsiya tushunchasiga ta’rif berishda hamda uni turizm sohasi bilan bog‘lash bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ulardan biri V.A. Kvartalnovning fikricha, rekreatsiya bu – insonning jismoniy, intellektual va emotsional kuchini kengaytirilgan tarzda qayta tiklash jarayonidir [3]. AQSh milliy turizm siyosati tadqiqotlar markazining ta’rifiga ko’ra esa, rekreatsiya bu – insonlarning bo’sh vaqtidan personal foydalanish jarayoni hisoblanadi. Mahalliy mutaxassislardan Z. Usmonovaning tadqiqotlarida rekreatsiya tushunchasini uydan tashqarida, masalan, tabiatga turizm sayohatlarda, sanatoriy-kurort, sog’lomlashtirish muassasalarida dam olish yo’li bilan salomatlikni va ishchi kuchini tiklash ko’rinishida talqin etiladi [4].

Y. Sharunenkoning ta’kidlashicha, rekreatsion turizm deganda insonning dam olish, reabilitatsiya va davolash, jismoniy, aqliy va hissiy kuchini tiklash va rivojlantirish maqsadidagi sayohatlar tushuniladi [5].

Vengriyalik olimlar E. Ksirmaza , K. Petelarning fikriga ko‘ra esa, rekreatsion turizm - bu turistik xizmatlar orasida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan sog'lomlashtirish turizmining bir tarmog'idir. Bunda turistlar asosan sog'lom bo'lgan rekreatsion xizmatlarni taqdim etuvchi provayderlarning dasturlarida ishtirok etadilar va bu joylarga birinchi navbatda sog'liqda yuzaga kelgan muammolarni oldini olish uchun tashrif buyurishadi [6].

Yuqoridagi fikrga zid ravishda, rossiyalik olim T.A.Burmenko sog‘lomlashtirish turizm klassifikatsiyasini tavsiflab bergan, unga ko‘ra, wellness turizm, tibbiy turizm, spa turizm hamda rekreatsion turizm mutlaqo biri biridan iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy va psixologik nuqtai nazaridan farq qilinishini tahlil qilgan [7].

A. Panasuik, rekreatsiya va turistik xizmatlarni individual va jamoaviy iste'mol jarayonida qo'llaniladigan, jamiyatning dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan foydali nomoddiy mahsulot deb hisoblaydi va bularning barchasi insonga jismoniy va aqliy kuchini kundalik hayotiy yumushlarini amalga oshirishdan yuzaga kelgan charchoqni bartaraf etishga imkon beradigan faoliyatdir deb hisoblaydi [8].

Rekreatsiya atamasi bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borgan mahalliy olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirgan holda Z. T. Abdulxakimov tomonidan: «Rekreatsiya – bu tabiiy muhitda inson o’zining ish qobiliyatini qayta tiklay olishi va dam olishi mumkin bo’lgan joylar (tabiatning manzarali joylari, baland tog’ va tog’ oldi hududlari, suv havzalari bo’ylari, soylar, sharsharalar, tabiiy yodgorliklar va qo’riqxonalar, davolanish va dam olishga mo’ljallangan sanatoriy, turizm bazalar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, turli ko’rgazmalar, teatrlar, turli madaniy kechalar va tadbirlar)ni o’z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir»,– degan ta’rif ishlab chiqilgan[9]. Chunki rekreatsiya – nafaqat mehnat qobiliyatini qayta tiklash, balki ruhiy va jismoniy faoliyatni qayta tiklashni ham o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi keltirilgan qarashlar hamda ta’riflarda rekreatsion turizm tushunchasining mohiyatini to‘liq ochib berilmagan. Negaki, mazkur mavzuni o‘rganadigan olimlar o‘zlarining ilmiy izlanishlari doirasida yoki tadqiqotlari asosida tahlil qilishgan. Bundan tashqari, hududlarning rekreatsion imkoniyatlari keng bo‘lganligi bois, ushbu mavzu doim o‘rganish mumkinligini isbotlab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida rekreatsiya resurslari bo'yicha nazariy va uslubiy asoslari o'rganildi qiyosiy va tizimli tahlil olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanilgan holda O'zbekistonning rekreatsion turizm obyektlari va ularning holati bo'yicha statistik tahlillar amalga oshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston hududida bugungi kunda turizmning ko'plab turlari hukumat tomonidan rivojlantirilmoqda hamda ushbu yo'nalishlarning xalqaro darajada turistlarning oqimini oshirish uchun zaruriy ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday turizm turlaridan biri sifatida rekratsion turizmni misol keltirish mumkin.

O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar orasida rekreatsiya turizmining muhim yo'nalishlari hisoblangan davolanish hamda dam olish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tashrif buyurganlar soni ko'pchilikni tashkil etadi (1-chizma).




1-chizma: O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar soni (ming nafar)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Chizma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan davrda rekreatsiya maqsadidagi tashrif buyurgan turistlar soni Pandemiyadan oldin yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan. 2020-yilgi holatdan so'ng bugungi kunga kelib ushbu yo'nalishlar bo'yicha tashrif buyuruvchilar sonida ijobiy o'sish holati kuzatilmoqda. Bu esa, kelgusi yillarda turizmning yuqoridagi maqsadlari bo'ylab O'zbekistonga keluvchilarning sonida o'sish bo'lishini ta'minlashi mumkin. Demak O'zbekiston rekreatsiya maqsadida tashrif buyurishni reja qilgan turistlar uchun talab etiladigan mamlakatlardan biriga aylanish imkoniyati mavjud.




2-chizma: O'zbekistondagi Sanatoriya-kurort muassasalari va dam olish tashkilotlari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Biroq, hozirgi kunda O‘zbekiston sharoitida ko‘p sonli turistlar oqimini qabul qilish imkoniyati yetarli darajada  emas. 2-chizmadagi ma’lumotlarni tahlil etadigan bo‘lsak, eng avvalo mamlakatimizda dam olish va kurort-sanatoriya tashkilotlari soni hanuzga qadar Pandemiyadan oldingi darajaga yetgani yo‘q. 2019-yilda 509 ta rekreatsiya turizmini ta’minlovchi tashkilotlar bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 405 tani tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, bu kabi obyektlardagi o‘rinlar sonini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ulardagi ham pasayish kuzatilgan. 2019-yil hamda 2022-yillarda mos ravishda 61,6 va 52,2 ming joylar mavjud. O‘z navbatida esa, dam olish hamda sanatoriya-kurort mehmonxonalardan foydalanuvchilar soni ham hozirgacha Pandemiyadan oldingi davrdagi ko‘rsatkichga yetganicha yo‘q.

Hozirgi kunda hukumat tomonidan mamlakatda turizmning har qanday yo‘nalishini shu bilan birga, rekreatsion turizm obyektlari va ularning imkoniyatlarini ham rivojlantirish ustida faol ishlar olib borilmoqda. Respublikadagi ko‘plab sanatoriyalar va kurort obyektlari tog‘li zonalarda joylashganligi bois ushbu obyektlardagi infratuzilmani takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, rekreatsion resurslar nafaqat tog‘li hududlarda balkim shahar hamda shahar atrofi hududlarda joylashgan bo‘lishi mumkinligi bilan ham xarakterlanadi. Shu o‘rinda esa rekreatsiya resurslarini turistlarni jalb qilish xususiyatiga ko‘ra quyidagi ikki guruhini ko‘rsatib o‘tish mumkin bo‘ladi(3-chizma).




3-chizma: Jalb etish xususiyatiga ko‘ra rekreatsion resurslar

Manba: o‘rganilgan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Birinchi ko‘rinishdagi obyeketlar inson salomatligini tiklash hamda sog‘lig‘ida mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan fiziologik ehtiyojlarni qondirishga ixtisoslashgan obyektlarni o‘z ichiga oladi.  Qo‘shimchasiga bu kabi obyektlar insonlarning salomatligini tiklashda ma’lum turdagi kasalliklarni da’volash hamda bu bo‘yicha sog‘liqni tiklashga ixtisoslashgan. Bunday yondashuv obyektlarning imkoniyatlarini hamda ulardan foydalanuvchilarning sonini to‘g‘ri taqsimlashda ijobiy xizmat qiladi.

Ikkinchi turdagi obyektlarda esa, nafaqat fiziologik ehtiyojlar, balki insonning ruhiyatiga, hissiyotlariga ham ta’sir ko‘rsatuvchi va psixologik ehtiyojlarini qondirishni ham o‘z ichiga olgan rekreatsiya obyektlarni keltirish mumkin. Bunday obyektlarda madaniy meros obyektlari bo‘ylab piyoda safarlar uyushtirish mumkin.

O‘zbekiston sharoitida asosan birinchi ko‘rinishdagi rekreatsion resurslarning soni ko‘p va ularning imkoniyatlaridan hozirga qadar samarali foydalanib kelinmoqda. Madaniy aloqalar bilan uyg'unlashgan rekreatsion resurslar va ularning imkoniyatlarini oshirish nafaqat tashrif buyurgan turistga sog‘liqni tiklash bo‘yicha shu bilan birga hududning madaniy resurslari bo‘yicha ham ko‘proq ma’lumot berish hamda ularda yangi tassurotlar uyg‘otishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda hududning rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish, nafaqat mahalliy aholi balki qo‘shni mamlakatlardan turistlar oqimini jalb etishga yordam beradi. Buning uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, quyidagi takliflarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Rekreatsion resurslarning faoliyatini amalga oshirishda ular joylashgan hududlarning infratuzilmasini takomillashtirish yangi barpo etilishi rejalashtirilgan obyektlarda zaruriy shart-sharoitlarga e’tibor qaratish;

O‘zbekistonda mavjud Sanatoriya-kurort muassasalari faoliyatini rag‘batlantirib borish hamda mahalliy aholi va xorijiy OAVlarda targ‘ib qilish

Madaniy aloqalar bilan uyg‘unlikni ta’minlovchi rekreatsiya obyektlari sonini oshirish va bu orqali hududning ikki(sog‘lomlashtirish va madaniy) yo‘nalishining imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

O‘zbekiston xalqaro turizm bozorida yuqori mavqega ega bo‘lishida o‘zida mavjud barcha resurslar qatori rekreatsion resurslarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Negaki zamonaviy iqtisodiyotda hududlarning tabiiy imkoniyatlari bu uning asosiy kuchi sifatida e’tirof etiladi.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 5-dekabrdagi ""Chorvoq" turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5273-sonli Farmoni. Manba: https://lex.uz/ru/docs/-3441087
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yilning 28-apreldagi ""Zomin" turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 254-sonli Qarori. Manba: https://lex.uz/docs/-5398836
3. Квартальнов В.А. Туризм. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.
4. Usmanova Z.I. O'zbekistonda turizm – rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendentsiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –SamISI, 2018 y. - 12 b
5. Sharunenko Yu.M. Recreational Tourism [Electronic source]: Eeducational–methodical manual. Orel: Interregional Academy of Safety and Survival 2014 - 102p. URL: http://www.iprbookshop.ru/33439. html. — ЭБС «IPRbooks»
6. Éva Csirmaz a, Károly Pető PhD International Trends in Recreational and Wellness Tourism Procedia Economics and Finance. Volume 32, 2015, Pages 755-762 https://doi.org/10.1016/S2212-5671(15)01458-6
7. Бурменко Т.А. Байкальский государственный университет, Российская Федерация, к вопросу о содержании понятия "Оздоровительный туризм" региональная и отраслевая экономика. И.: – 2016. № 26(1). – С. 42-49
8. Panasiuk A. (eds.) Ekonomika turystyki i rekreacji. Wydawnictwo Naukowe PWN; 2011
9. Abdulxakimov Z.T. Mintaqada rekreatsiyasidan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –SamISI, 2019 y. - 12 b

**Internet saytlar:**

1. https://stat.uz/uz- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti
2. https://www.statista.com/statistics/1093335/leisure-travel-spending-worldwide/
3. https://www.etymonline.com/search?q=recreation

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL:  30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi 26-uy.